

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISH INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA AHOLINING DAVLAT XIZMATLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda fuqarolar va tadbirkorlarga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi bosqichma-bosqich isloq qilinib, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash borasida tizimli chora-tadbirlar faol amalga oshirilmoqda.

Xususan, sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida 70 dan ziyod davlat xizmatlari soddalashtirildi, davlat xizmatlari markazlari tomonidan qamrab olingan xizmatlarni ko'rsatish muddati va talab etiladigan hujjatlar soni o'rtacha ikki barobarga qisqartirildi.

Shu bilan birga, davlat xizmatlari markazlari tomonidan xizmatlarning qamrab olish darajasi pastligi, davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlarining uzunligi, ular bo'yicha to'lovlarning yuqoriligi, aksariyat davlat organlarining zarur ma'lumotlari to'liq raqamlashtirilmaganligi ushbu yo'nalishda oldimizda turgan vazifalarning dolzarbligidan dalolat beradi.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni jadallashtirish, davlat xizmatlari sifatli ko'rsatilishini ta'minlash, turli toifadagi davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini raqamlashtirish jarayonlarini uyg'unlashtirish maqsadida:

1. 2021-yil 1-noyabrdan shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari markazlari va (yoki) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (keyingi o'rnlarda — YIDXP) orqali davlat xizmatlarini ko'rsatishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlardan bo'yicha 50 foiz miqdorida chegirma qo'llaniladi (tadbirkorlik faoliyati maqsadlarida yoki yuridik shaxslar vakili sifatida murojaat qilingan holatlar bundan mustasno);
- Davlat xizmatlari markazlari, "Litsenziya" axborot tizimi hamda YIDXP orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatidan uch ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilganda, ariza beruvchilarning murojaatlariga asosan, xizmatdan foydalanish uchun to'langan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarning 50 foizi ularga bir ish kunida qaytariladi. Bunda:

Oldingi tahrirga qarang.

ariza beruvchiga to'lovlardan Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qaytariladi va Adliya vazirligi tomonidan davlat xizmatini ko'rsatish muddatini kechiktirgan davlat organi va tashkilotining budjetdan tashqari va boshqa mablag'lari hisobidan so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirib olinadi;

(1-band "b" kichik bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

ariza beruvchiga tegishli davlat xizmati to'liq hajmda ko'rsatiladi.

2. 2022-yil 1-yanvardan ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatishda undiriladigan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa to'lovlardan miqdorlari 1-ilovaga muvofiq kamaytirilsin.

3. Adliya vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining:

a) 2021-yil 1-dekabrdan boshlab:

chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar hamda fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga elektron raqamli imzo kaliti sertifikatlarini O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan berish orqali elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratish;

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga jismoniy shaxsnинг shaxsiy identifikatsiya raqamini soddalashtirilgan tartibda tuman (shahar) migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalarida hamda davlat xizmatlari markazlarida amalga oshirish;

litsenziya, ruxsatnoma, sertifikat va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning dublikatini berish uchun qonunchilik hujjatlarida milliy valyutada belgilangan to'lovlarни bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizigacha miqdorda belgilash (qonunchilik hujjatlarida to'lovlar belgilanmagan yoki bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizidan kam miqdorda belgilangan hollar bundan mustasno). Bunda, QR-kod qo'yilgan litsenziya, ruxsatnoma, sertifikat va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning dublikatlarini berish uchun to'lov undirilmaydi;

b) 2022-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'Imagan shaxsnинг identifikatsiya ID-kartasini hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorija chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berishni, shu jumladan davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yish to'g'risidagi takliflari qo'llab-quvvatlansin.

4. Quyidagilar:

Davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali bosqichma-bosqich joriy etiladigan davlat xizmatlari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

2021-yil 1-oktabrdan ayrim turdagи ma'lumotlar va elektron ko'rinishdagi hujjatlarni "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda berish uchun mas'ul davlat organlari va tashkilotlari ro'yxati 3-ilovaga muvofiq;

2022-yil 1-yanvardan ko'rsatish muddatlari qisqartiriladigan davlat xizmatlarining ayrim turlari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq;

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini yanada soddalashtirish, muddatlarini, talab qilinadigan hujjatlarini qisqartirish hamda raqamlashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Belgilansinki, 2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat tashkilotlari tomonidan aholidan, shu jumladan tadbirkorlik subyektlardan:

a) quyidagi faktlarni tasdiqlovchi ma'lumotlarni:

tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma ma'lumotlarini;

litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va xabarnomalar qabul qilinganligi to'g'risida tasdiqnomasi mavjudligini;

davlat boji, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanligini;

qimmatli qog'ozlarga egaligini, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar amalga oshirilganligini, dividendlar olinganligini;

kam ta'minlangan oila yoki oila a'zosi sifatida ro'yxatga olinganligini;

jismoniy shaxslar tomonidan alimentlar to'langanligini va olinganligini;

oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom ma'lumotlarini;

jismoniy shaxs tomonidan o'rta maxsus, professional (kasb-hunar) ta'lim muassasasi tugatilganligini;

jismoniy shaxs tomonidan umumiy o'rta ta'lim muassasasi (11-sinf negizida) tugatilganligini;

fuqaro "Yoshlar daftari" yoki "Ayollar daftari"da mavjudligini;

o'zini o'zi band qilgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyorligi ega bo'lgan abituriyentlarning imtiyor

huquqini tasdiqlovchi hujjat to'g'risida ma'lumotlarni;

b) quyidagi hujjatlarni:

moliyaviy hisobotlar nusxalarini;

jismoniy shaxslarning oxirgi 12 oydagisi ish haqini tasdiqlovchi ma'lumotnomalarni;

ijtimoiy nafaqa va pensiyalar to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotnomalarni talab qilish bekor qilinadi.

Bunda, davlat organlari va tashkilotlari jismoniy shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda, ishga qabul qilish jarayonida va boshqa ma'muriy tartib-taomillarni amalga oshirishda mazkur bandda nazarda tutilgan hujjat va ma'lumotlarni ushbu Farmonga 4-ilovada belgilangan mas'ul davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so'rab oladi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi vazirligini idoralar bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar axborot xavfsizligi talablariga rioya etgan holda o'zlarining idoraviy axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan axborot va ma'lumotlarning "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga integratsiya qilinishini ta'minlasin.

Vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga elektron ma'lumot bazalarini o'z vaqtida va sifatli shakllantirish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, ma'lumotlar hamda elektron ko'rinishdagi hujjatlarni muddatida berish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

Mazkur bandda ko'rsatilgan hujjat va ma'lumotlarning davlat organlari va tashkilotlari tomonidan aholidan talab qilinishi davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish deb hisoblanadi.

6. Belgilansinki, 2022-yil 1-yanvardan boshlab davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun undiriladigan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarning davlat xizmatini ko'rsatish uchun mas'ul davlat organlari va tashkilotlari hisobiga yo'naltiriladigan qismining kamida 20 foizi ushbu tashkilotda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, qog'oz ko'rinishdagi hujjatlarni raqamlashtirish uchun yo'naltiriladi.

Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini bilan birgalikda davlat organlari va tashkilotlarda mazkur bandda nazarda tutilgan mablag'larning axborot texnologiyalarini rivojlantirish, shuningdek, qog'oz ko'rinishdagi hujjatlarni raqamlashtirish uchun yo'naltirilishini doimiy ravishda monitoring qilib borsin.

7. 2022-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxslarga ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini beruvchi malaka sertifikatlarini berish hamda ularni ushbu maqsadda attestatsiyadan o'tkazishning quyidagi tartibi joriy etilsin:

malaka sertifikatlarini berish va attestatsiyadan o'tkazish uchun murojaatlar elektron shaklda qabul qilinadi;

malaka sertifikatlarini berish uchun o'tkaziladigan imtihon jarayonlari uzlusiz videotasvirga (ovozi) tushiriladi va videotasvir kamida bir yil saqlanadi;

malaka sertifikatlarini berish va attestatsiyadan o'tkazish uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan to'lovlarning davlat xizmatlari ko'rsatilganligi uchun to'langan davlat bojlari va yig'imlar summasi hisobini yurituvchi Yagona billing tizimi orqali amalga oshiriladi;

talabgorlardan imtihon olishda savollar test ko'rinishida kompyuter vositasi orqali olinadi va natijasi shu vaqtning o'zida ma'lum qilinadi (alohida iqtidor hamda amaliy sinovlar talab etiladigan yo'nalishlar bundan mustasno);

~~malaka sertifikatlarini va attestatsiya guvohnomalarini QR-kod qo'yilgan holda rasmiylashtiriladi.~~

3 / 23

8. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-noyabrga qadar elektron (onlayn) ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini oshirish hamda

fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida “Elektron hukumat” tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimining (OneID) yangi talqini hamda uning mobil ilovasi ishlab chiqilishini ta’minlasin.

Bunda, masofaviy identifikatsiya qilishni yo’lga qo’yish, davlat xizmatidan foydalanishda shaxsni mobil aloqa telefoni orqali tasdiqlash, davlat xizmatlarini ko’rsatish holati to’g’risida abonentlarga SMS-xabar yuborish imkoniyatini yaratsin.

9. 2022-yil 1-yanvardan Toshkent shahrida, 2022-yil 1-iyuldan esa butun respublika hududida o’limni qayd qilish bo’yicha quyidagilardan iborat kompozit xizmat ko’rsatish tizimi yo’lga qo’yilsin:

tibbiyot birlashmasi xodimi vafot etganlik to’g’risidagi ma’lumotnomani rasmiylashtirib, “Tug’ilish va o’limni, shu jumladan perinatal o’limni elektron ro’yxatga olish” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali elektron shaklda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (keyingi o’rninda — FHDY) organiga yuboradi. Bunda, vafot etganlik to’g’risidagi tibbiyot ma’lumotnomasi vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari arizasiga asosan ularga qog’oz shaklida berilishi va ular to’g’ridan to’g’ri FHDY organiga murojaat qilishi ham mumkin;

FHDY organi ma’lumotnoma kelib tushgandan so’ng bir ish kuni mobaynida shaxsning o’limini “FHDY yagona elektron arxivi” axborot tizimida qayd qilib, QR-kod orqali tasdiqlaydi;

FHDY organi vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari arizasiga asosan ularga vafot etganlik haqidagi dalolatnomada yozuvini gerbli guvohnomada eksterritorial tamoyil asosida rasmiylashtirib beradi yoki pochta aloqasi orqali arizada ko’rsatilgan manzilga yuboradi.

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

a) 2021-yil 1-oktabrga qadar:

budgetdan tashqari Pensiya jamg’armasi va Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” hamda “TMEK” axborot tizimlari YIDXP bilan integratsiya qilinishini ta’minlasin;

davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali davlat xizmatlari ko’rsatilishida to’lovlar bo’yicha imtiyozga ega bo’lgan shaxslarni real vaqt rejimida aniqlash va to’lov miqdorini avtomatik tarzda belgilash tizimini joriy etsin;

Tashqi ishlar vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va Adliya vazirligi bilan birgalikda chet elda doimiy yashovchi O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar hamda fuqaroligi bo’limgan shaxslarga O’zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan elektron raqamli imzo kaliti sertifikatlarini berish orqali elektron davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratsin;

Markaziy bank hamda manfaatdor vazirlig va idoralar bilan birgalikda xorijdan turib elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda davlat bojlari, yig’imlar va boshqa har qanday to’lovlar chet el valyutasida xalqaro to’lov tizimlari va boshqa vositalar orqali amalga oshirish mexanizmini joriy etsin;

b) “O’zbektelekom” AK bilan birgalikda 2021-yil 1-sentabrdan aholiga ko’rsatilayotgan xizmatlar sifatini va tezkorligini oshirish maqsadida respublika hududidagi barcha davlat xizmatlari markazlari (ularning filiallari) hamda FHDY organlarining Internet tarmog’i hamda himoyalangan VPN tarmog’iga Toshkent shahri uchun mo’ljallangan eng arzon tariflar bo’yicha ulanishini va xizmat ko’rsatilishini ta’minlasin.

11. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko’rsatish tizimini muvofiqlashtirish bo’yicha Respublika ishchi komissiyasi (A.N. Aripov) 6-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin va quyidagilar uning assosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat xizmatlari ko’rsatish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning o’zaro hamkorligini tashkil etish va ta’minlash;

— davlat xizmatlari ko’rsatish sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini, shu jumiadan davlat xizmatlari ko’rsatish jarayonida qo’llaniladigan ma’lumotlarning raqamlashtirilganlik holatini monitoring qilish, tahlil qilish va xizmat ko’rsatuvchi organlarning hisobotlarini tinglash;

mazkur Farmonda nazarda tutilgan hamda davlat xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan vazifa va topshiriqlarning ijrosini nazorat qilish;

davlat xizmatlarini taqdim etishni optimallashtirish, tartib, muddat va zarur hujjatlarni qisqartirish bo'yicha choralar ko'rish;

jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini samarali ko'rsatishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini ko'rish, vazirlik va idoralarga bajarilishi majburiy bo'lgan topshiriq va ko'rsatmalar berish;

davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritish.

[Oldingi](#) tahrirga qarang.

(12-band O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagি PF-89-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

[Oldingi](#) tahrirga qarang.

(13-band O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagি PF-89-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

14. Ichki ishlar vazirligi Adliya vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvarga qadar "avtomobil tarixi" ma'lumotlarini (davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi, yurgan masofasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzilganligi, yo'l transport hodisasi sodir etilganligi va boshqalar haqida) avtomototransport vositalariga berilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisi orqali shartnomaviy asosda davlat xizmatlari markazi va YIDXP orqali aniqlash davlat xizmatini yo'lga qo'ysin.

15. Uy-joy communal xizmat ko'rsatish vazirligi Davlat personallashtirish markazi, Energetika vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Kadastr agentligi, "O'ZSUVTA'MINOT" AJ hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrga qadar communal tarmoqlardagi barcha raqamlar (gaz, elektr, issiq suv, ichimlik suvi, kanalizatsiya, chiqindi) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamiga va yuridik shaxslarning soliq to'lovchining identifikatsiya raqamiga bog'lanishini ta'minlasin hamda bu orqali har bir shaxsga "yagona mijoz" tamoyili asosida unikal raqamdan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatilishini yo'lga qo'ysin.

Kadastr agentligi communal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan birgalikda uch oy muddatda barcha ko'chmas mulk obyektlarining kadastr raqamlariga bog'lanishini hamda ko'chmas mulk obyektlarining yagona manzillar reyestri bilan integratsiya qilinishini ta'minlasin.

16. Adliya vazirligi:

2021-yil 1-dekabrga qadar 2022 — 2026-yillarda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini rivojlantirish milliy strategiyasini ishlab chiqsin;

Sog'lijni saqlash vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda viloyat markazlari, Toshkent va Nukus shaharlaridagi davlat xizmatlari markazlari binolarida Davlat xizmatlari agentligining budgetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobidan zarur texnik jihozlar bilan ta'minlangan "Salomatlik burchaklari"ni tashkil qilsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan birgalikda 2021-yil 20-avgustga qadar davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari binolarida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlangan ekspozitsiyalar tashkil qilsin;

~~manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariiga mazkur Farmonidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.~~

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjalariiga 7-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilsin.

18. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda mazkur Farmonning mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

19. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov, adliya vaziri R.K. Davletov belgilansin.

(19-bandning birinchi xatboschisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijo uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan 2022-yil 1-yanvar va 2022-yil 1-iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,

2021-yil 24-iyul,

PF-6269-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagи PF-6269-son Farmoniga
1-ILOVA

2022-yil 1-yanvardan ko'rsatilishi uchun undiriladigan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa to'lovlari miqdori kamaytiriladigan davlat xizmatlari

RO'YXATI

T/r	Davlat xizmati nomi	Amaldagi to'lov miqdori	O'rnatilayotgan to'lov miqdori
1.	Advokatlik byurolarini, advokatlik firmalarini va advokatlar hay'atlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish	BHMning 2 baravari	BHMning 1 baravari
2.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olishga doir bitimlarga oldindan rozilik berish	BHMning 10 baravari	BHMning 7 baravari
3.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish va qo'shib olishga doir bitimlarga oldindan rozilik berish	BHMning 10 baravari	BHMning 7 baravari
4.	O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga xorija chiqish uchun biometrik pasport berish	BHMning 1,2 baravari	BHMning 1 baravari
5.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, chet ellik fuqarolarga va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasiga taklif qilish to'g'risidagi hujjalarni berish	BHMning 10 foizi	BHMning 5 foizi
6.	Xususiy bandlik agentliklari reyestriga kiritish	BHMning 1 baravari	Bepul
7.	Tadbirkorlik subyektlariga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida yangi namunadagi guvohnoma berish	BHMning 1 baravari	BHMning 20 foizi
8.	O'zbekiston Respublikasining tegishli diplomatik vakolatxonalarini va konsultlik muassasalarini tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar uchun undiriladigan gerb blankasi uchun yig'im	5 AQSh dollarri	Bepul

Davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali bosqichma-bosqich joriy etiladigan davlat xizmatlari

RO'YXATI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Davlat xizmati nomi	Joriy etish muddati	Davlat xizmatini ko'rsatish uchun mas'ul vakolatlari organi
1.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, respublikada doimiy yashovchi fuqaroligi bo'Imagan shaxslar va chet et fuqarolariga ID-karta hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berish	2022-yil 1-yanvar	Ichki ishlar vazirligi
2.	Gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchisi va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarga malaka sertifikatini berish		Turizm va sport vazirligi
4.	Sport hakamlariga malaka toifasini berish		Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
5.	Sud boshqaruvchilarini attestatsiyadan (qayta attestatsiyadan) o'tkazish va malaka attestatini berish		Biznes va tadbirkorlik olyi maktabi
6.	Baholovchilarga toifalar berish		Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi
7.	Sud boshqaruvchisi attestatini olish uchun talabgorlarni o'qitish va sud boshqaruvchilari malakasini oshirish		Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
8.	Ko'chmas mulk bo'yicha kadastr muhandisining malaka shahodatnomasini berish		Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi Moliya vazirligi
9.	Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarini attestatsiyadan o'tkazish		
10.	Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasida maxsus vakolatlari davlat organi tomonidan ekspertlarni akkreditatsiya qilish		
11.	Veterinariya xizmati mutaxassislarining malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash va ularga malaka toifalari berish		
12.	O'zbekiston Respublikasi budget tashkilotlari, davlat maqsadli jamg'armalari hamda boshqa budgetdan tashqari jamg'armalarning buxgalteriya hisobi xodimlarining malaka imtihonini o'tkazish va budget hisobi hisobchisi sertifikatini berish		
15.	Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini olish uchun jismoniy shaxslarni attestatsiya (qayta attestatsiya)dan o'tkazish		
16.	Ichki auditor sertifikatini berish		Auditorlarning respublika professional jamoat birlashmalari
17.	Aktuariy malaka sertifikatini berish		Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi
18.	Sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatsiyadan o'tkazish		O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi
19.	Muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok etishga talabgor bo'lgan mutaxassislarni sertifikatlashtirish		Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi
20.	Mehnatni muhofaza qilish sohasida malaka sertifikatini berish		
21.	Korporativ boshqaruvchi malaka attestatini berish		
22.	Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish		
23.	Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari		

tizimining rahbar kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish	X. Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi, Ichki ishlar vazirligi
24.Davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o'tkazish	Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi
25.Sanoat xavfsizligi sohasidagi ekspertlarni attestatsiyadan o'tkazish	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi
26.Patent vakilligiga nomzodlarni attestatsiyadan va ro'yxatdan o'tkazish hamda patent vakillarini attestatsiyadan o'tkazish	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
27.Maktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional hamda maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish	Madaniyat vazirligi
28.Davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan rahbarlari va bo'linmalari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi, tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar Xalq ta'lim vazirligi
29.Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari sohasida restavrator-ustalarga malaka sertifikatini berish	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
30.Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish, qayta tiklash	Oliy sud Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUK
31.Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish uchun hujjatlarni qabul qilish (magistratura)	
32.Yo'qolgan attestatlar bo'yicha dublikat berish uchun ariza qabul qilish	2022-yil 1-aprel
33.Alohidha uy (uyning bir qismi) yoki kvartirani xususiylashtirishga bergen shaxslar to'g'risidagi ma'lumotnomaga berish	
34.Davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha ariza (buyurtmanoma) berish	
35.Sud organlarida rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish	
36.Kontraktlarni mustaqil ekspertizadan o'tkazish va import qilinadigan tovarlarni yuk ortishdan oldin inspeksiyadan o'tkazish bilan shug'ullanuvchi firmalarni (inspeksiya organi) akkreditatsiya qilish	
37.Kapital qurilish tender hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish	
38.Imtiyozlar qo'llagan holda import qilinadigan tovarlarni ekspertizadan o'tkazish	
39.Investitsiyaviy loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslanishini kompleks ekspertizadan o'tkazish	
40.Infratuzilmaviy loyihalarning texnik-iqtisodiy hisob-kitobini kompleks ekspertizadan o'tkazish	
41.Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi hujjatlarini ishlab chiqish uchun texnik vazifalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish	
42.Erkin iqtisodiy zonalar hududida investitsiya loyihalarini joylashtirishning sharti sifatida tadbirkorlik subyektlarining biznes-rejalari va texnik-iqtisodiy asoslarini ko'rib chiqish	
43.Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kompleks ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash	
44.Davlat tomonidan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish uchun tender hujjatlarini va texnik vazifalarni kompleks ekspertizadan o'tkazish	
45.Tovarlar (ish va xizmatlar) davlat xaridiga texnik topshirqlarni kompleks ekspertizadan o'tkazish	
46.Kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish	

47.Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning tender hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish			
49.Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'larini sertifikatlash	2022-yil 1-avgust	Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiysi huzuridagi "Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi" DUK	
50.Urug'lik paxta chigitini uslubiy tahlil qilish va tuproqda nav tozaligini baholash			
51.Donli ekinlar urug'larini uslubiy tahlil qilish va tuproqda nav tozaligini baholash			
52.Urug'lar, dukkanli, moyli ekinlarni va boshqa don ekinlarini qayta ishlashga sertifikat berish		O'zbekiston Milliy kutubxonasi	
53.Universal o'nlik klassifikatsiya (UO'K) indeksini berish			
54.Kutubxona-bibliografik klassifikatsiya (KBK) indeksini berish			
55.Kitobning xalqaro standart tartib raqamini (ISBN) berish			
56.Davriy nashrning xalqaro standart tartib raqamini (ISSN) berish			
57.Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish)		Oliy attestatsiya komissiyasi	
58.O'zbekiston hududida xorijiy tijorat tashkilotlari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish		Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	
59.Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish		Davlat statistika qo'mitasi	
60.Binolar va inshootlarning mansubligi va tarkibi to'g'risida ma'lumotnomalar berish		Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Moliya vazirligi	
61.Emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish			
62.Avval davlat ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishiga o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar kiritish			
63.Avval davlat ro'yxatidan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishini bekor qilish			
64.Statistik ma'lumotlarni taqdim etish (taqdim etilishi mumkin bo'Imagan ma'lumotlar bundan mustasno)	2022-yil 1-noyabr	Davlat statistika qo'mitasi	
65.Falsaфа doktori (Doctor of Philosophy, PhD) ilmiy darajasi bo'yicha davlat namunasidagi diplomni elektron shaklda taqdim etish		Oliy attestatsiya komissiyasi	
66.Fan doktori (Doctor of Science, DSc) ilmiy darajasi bo'yicha davlat namunasidagi diplomni elektron shaklda taqdim etish			
67.Professor ilmiy unvoni bo'yicha davlat namunasidagi attestatni elektron shaklda taqdim etish			
68.Dotsent ilmiy unvoni bo'yicha davlat namunasidagi attestatni elektron shaklda taqdim etish			
69.Katta ilmiy xodim ilmiy unvoni bo'yicha davlat namunasidagi attestatni elektron shaklda taqdim etish			
70.Alohidha fanlar bo'yicha chuqur o'rgatish maqsadida 5-sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan davlat umumta'lim muassasalariga qabul qilish uchun ariza olish		Xalq ta'lif vazirligi	
71.7-sinf o'quvchilarini ixtisoslashgan davlat umumta'lim muktab-internatlariga qabul qilish uchun ariza olish			
72.Chet el fuqarolari va fuqaroli di bo'Imagan shaxslar bolalarini umumiyl o'rta ta'lif muassasalariga qabul qilish uchun arizalar olish			
73.Eksternat tartibida imtihonlar olish uchun arizalar qabul qilish			
74.Shtrixli kodlar original-maketlarini tayyorlash		O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi "Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" davlat korxonasi	
75.Davlat arxivlari o'quv zallarida arxiv hujjatlaridan foydalanish		9/23 "O'zarxiv" agentligi	
76.Tegishli rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish		Tashqi ishlar vazirligi	

77.Bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif tashkilotiga qabul qilish	Sog'liqni saqlash vazirligi
78.O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishda chet davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'Imagan shaxsning davlat tilini bilish darajasini aniqlash	2023-yil 1-mart
80.Texnikani va qishloq xo'jaligi mashinalarini ro'yxatdan o'tkazish	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida♦ Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiysi huzuridagi "Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi" DUK Turizm va sport vazirligi
81.Texnika va qishloq xo'jaligi mashinasini hisobga qo'yish	
82.Traktorchi-mashinistlarga guvohnoma va ogohlantirish talonini berish	
83.Xostellar♦ yagona reyestriga kiritish	
84.Oilaviy mehmon uylarini yagona reyestriga kiritish	
85.Sportchining sport pasportini berish	
86.Bolalarni O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida Respublika bolalar-o'smirlar futbol akademiyasiga qabul qilish	
87.Bolalarni sport-ta'lif muassasalariga qabul qilish	

(2-ilo va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi PF-89-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldaggi PF-6269-son Farmoniga
3-ILOVA

2022-yil 1-yanvardan ayrim turdag'i ma'lumotlar va elektron ko'rinishdagi hujjatlarni "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda berish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari

RO'YXATI

[Oldingi](#) tahrirga qarang.

T/r	Ma'lumot va hujjatlar nomi	Ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish hamda ularni berishga mas'ul organlar
1.	Tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma ma'lumotlari	Adliya vazirligi
2.	Litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va xabarnomalar qabul qilinganligi to'g'risida tasdiqnoma mavjudligi bo'yicha ma'lumotlar	Adliya vazirligi, vakolatli organlar
3.	Davlat boji, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanligi to'g'risida ma'lumotlar	Moliya vazirligi, Pensiya jamg'armasi
4.	Qimmatli qog'ozlar, qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar, dividendlar olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar	Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi, "O'zbekiston pochtasi" AJ
5.	Kam ta'minlangan oila yoki oila a'zosi sifatida ro'yxatga olinganligi to'g'risida ma'lumotlar	Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
6.	Jismoniy shaxslar tomonidan to'langan va olingan alimentlar to'g'risida ma'lumotlar*	Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
7.	Oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom ma'lumotlari	Xalq ta'limi vazirligi
8.	Jismoniy shaxs o'rta maxsus, professional (kasb-hunar) ta'lif muassasasini tugatganligi haqida ma'lumotlar	Yoshlar ishlari agentligi
9.	Jismoniy shaxs umumiy o'rta ta'lif (11-sinf negizida) muassasasini tugatganligi haqida ma'lumotlar	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi
10.	Fuqaro "Yoshlar daftari"da mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar	Davlat soliq qo'mitasi
11.	Fuqaro "Ayollar daftari"da mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar	
12.	Moliyaviy hisobotlar nusxalari*	

-
13. O'zini-o'zi band qilgan shaxslar to'g'risida ma'lumot
 14. Jismoniy shaxslarning oxirgi 12 oydag'i ish haqini tasdiqlovchi
 ma'lumotnomasi
 15. Ijtimoiy nafaqa va pensiyalar to'langanligi bo'yicha
 ma'lumotnomasi
 16. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtizozga ega
 bo'lgan abituriyentlarning imtizoz huquqini tasdiqlovchi hujjat
 to'g'risida ma'lumotlar
- Pensiya jamg'armasi
 Davlat test markazi*

* Ushbu hujjatlar jismoniy va yuridik shaxslardan birlamchi olingandan so'ng tegishli organlarga "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali taqdim etiladi.

(3-ilo va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdag'i PF-89-soni [Farmoni](#) tahririda —
 Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-ton)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldag'i PF-6269-ton Farmoniga
 4-ILOVA

2022-yil 1-yanvardan ko'rsatish muddatlari qisqartiriladigan davlat xizmatlarining ayrim turlari

RO'YXATI

T/r	Davlat xizmati nomi	Vakolatli organ	Amaldagi muddat	O'rnatilayotgan muddat
1.	Sudlardan chiqadigan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish	Oliy sud	5 ish kuni	3 ish kuni
2.	Falsafa doktori (Doctor of Philosophy, PhD) ilmiy darajasi bo'yicha davlat namunasidagi diplomni berish	Oliy attestatsiya komissiyasi	20 kun	1 ish kuni
3.	Fan doktori (Doctor of Science, DSc) ilmiy darajasi bo'yicha davlat namunasidagi diplomni berish		20 kun	1 ish kuni
4.	Professor ilmiy unvoni bo'yicha davlat namunasidagi attestatni berish		1 oy	1 ish kuni
5.	Dotsent ilmiy unvoni bo'yicha davlat namunasidagi attestatni berish		1 oy	1 ish kuni
6.	Katta ilmiy xodim ilmiy unvoni bo'yicha davlat namunasidagi attestatni berish		1 oy	1 ish kuni
7.	Xorijiy davlatlarda ilmiy daraja olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish)		PhD diplomi uchun 2 oy; DSc diplomi uchun 3 oy	PhD diplomi uchun 1 oy; DSc diplomi uchun 1 oy
8.	Chet tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha test sinovini o'tkazish va davlat namunasidagi huzuridagi Davlat test malaka sertifikatini berish	Vazirlar Mahkamasi markazi	3 hafta	1 hafta
9.	Chet tili o'qituvchilarining lavozim maoshlariga oylik ustama belgilash uchun test sinovlarini o'tkazish		3 hafta	1 hafta
10.	Davlat arxivlari o'quv zallarida arxiv hujjatlardidan foydalanish	"O'zarxiv" agentligi	3 ish kuni	1 ish kuni
11.	Arxiv hujjatlari, kitoblar va qo'lyozmalarini raqamlashtirish (elektron nusxa olish)		5 ish kuni	3 ish kuni
12.	Arab alifbosida yaratilgan turk, fors, arab tilidagi hujjatlardagi axborotlar to'g'risida annotatsiya ma'lumotlarini tayyorlab berish		(20 ish kuni) 5 ish kuni	(15 ish kuni) 3 ish kuni
13.	Iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatiga litsenziya berish	Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi	(15 ish kuni)	(10 ish kuni)
14.	Alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosи		15 kun	10 kun
				11/23

bo'yicha faoliyatiga litsenziya berish				
15.Statistik ma'lumotlarni taqdim etish (taqdim etilishi mumkin bo'Imagan ma'lumotlar bundan mustasno)	Davlat statistika qo'mitasi	14 kun	7 kun	
16.Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo'yicha ma'lumot taqdim etish		14 kun	3 kun	
17.Mulk huquqini tasdiqllovchi davlat orderi dublikatini berish	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	10 kun	5 kun	
18.Davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha ariza (buyurtmanoma) berish		10 kun	5 kun	
19.Davlat mulklarini ijaraga berish		10 kun	5 kun	
20.Sud boshqaruvchisi attestatini berish		10 kun	3 kun	
21.Rietor malaka sertifikati berish		2 kun	1 kun	
22.Baholovchining malaka sertifikatini berish		2 kun	1 kun	
23.Shtrixli kodlar original-maketlarini tayyorlash	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi huzuridagi "Shtrixli kodlash va axborot texnologiyalari markazi" davlat korxonasi	15 kungacha	5 kun	
24.Texnik loyiha hujjatlarini ko'rib chiqish	Transport vazirligi	30 kun	15 kun	
25.Kemalarni ro'yxatga olish		10 kun	5 kun	
26.Fuqaro havo kemalariga shovqinlar bo'yicha sertifikatni berish	"O'zaviatsiya" agentligi	10 ish kun	5 kun	
27.Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlaridan chiqadigan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish	Adliya vazirligi	5 ish kuni	2 ish kuni	
28.Professional mediatorlarning reyestrini yuritish		(20 ish kuni)	(10 ish kuni)	
29.Yuridik maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkilotlarning reyestrini yuritish		15 ish kuni	10 kun	
30.Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish		3 kun	1 kun	
31.Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya berish		20 kun	10 ish kuni	
32.Advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani qayta rasmiylashtirish		3 kun	2 ish kuni	
33.Advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish		10 kun	5 ish kuni	
34.Advokatlik tuzilmalarining ta'sis hujjatlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish		10 kun	5 ish kuni	
35.Advokatlik guvohnomasini berish		3 kun	2 ish kuni	
36.Yo'qotilgan yoki yaroqsiz holga kelgan guvohnoma o'rniغا yangi guvohnoma berish		3 kun	2 ish kuni	
37.Notariat sohasidagi arxiv hujjatlari hamda reyestrlardan ko'chirmalar berish	belgilanmaga n		2 ish kuni	
38.Notarial tasdiqlangan hujjatlarning dublikatlarini berish	belgilanmaga n		5 ish kuni	
39.O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy tijorat tashkilotlari vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	10 kun	5 kun	
40.Mahalliy tarmoqlar, shaharlارaro tarmoqlar, xalqaro tarmoqlar, ko'chma radiotelefon aloqa tarmoqlarini, loyihalash, qurish, foydalanish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	20 ish kuni	10 ish kun	
41.Ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, teleradio dasturlar tarqatish tarmoqlarini loyihalash,		20 ish kuni	10 ish kun	

qurish, foydalanish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash				
42.Elektron raqamli imzo kalitlarini taqdim etish uchun arizalar qabul qilish	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi qoshidagi "UNICON.UZ" DUK Xalq ta'limi vazirligi	3 ish kuni	1 ish kuni	
43.Yo'qolgan attestatlar bo'yicha dublikat berish uchun ariza qabul qilish		7 kun	5 ish kuni	
44.Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar bolalarini umumiy o'rta ta'limga muassasalariga qabul qilish uchun arizalar qabul qilish		14 kun	7 kun	
45.Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga organlik to'g'risida hujjatlarni tan olish uchun elektron ariza yuborish	Xalq ta'limi vazirligi	6 kun	3 ish kuni	
46.Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash	Madaniyat vazirligi huzuridagi "O'zbekkonsert" davlat korxonasi	21 kun	15 kun	
47.O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan tasdiqnomani qayta rasmiylashtirishga ariza berish	Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi	5 ish kuni	3 ish kuni	
48.OAVni davlat ro'yxatidan qayta o'tkazish	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi	15 kun	10 kun	
49.OAVni davlat ro'yxatidan o'tkazish		15 kun	10 kun	
50.Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish	Davlat xizmatlari agentligi	15 kun	10 kun	
51.Familiya, ismi va otasining ismini o'zgartirish		1 oy	20 kun	
52.FHDY organlari tomonidan arxiv hujjatlarini berish		3 ish kuni	2 ish kuni	
53.Avtotransport vositasiga yuklarni bojxona plombalari va muhrlari ostida xalqaro tashishga ruxsat berilganligi to'g'risidagi guvohnoma	Davlat bojxona qo'mitasi	10 ish kuni (20 ish kuni)	5 ish kuni (10 ish kuni)	
54.Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish kitobchasidan foydalanish uchun ruxsatnoma berish		10 ish kuni	5 ish kuni	
55.Turoperatorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish	Turizm va sport vazirligi	10 kun	5 kun	
56.Turagentlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish		10 kun	5 kun	
57.Sportchilarga sport pasportini berish		12 kun	3 kun	
58.Sport-ta'limga muassasalarining trener-o'qituvchilari va yo'riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish		5 kun	3 kun	
59.Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalarga ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish. Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasini berish	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi	30 ish kuni	24 ish kuni	

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldaggi PF-6269-son Farmoniga
5-ILOVA

Davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibini yanada soddalashtirish, muddatlarini, talab qilinadigan hujjatlarini qisqartirish hamda raqamlashtirish bo'yicha

[Oldingi](#) tahririga qarang.

T/r	Tadbirlarning nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar Vazirlilik va idoralardan Moliya vazirligi (T. Ishmetov),	Vazirlar Mahkamasidan J. Qo'chqorov, O. Umarov,
1.	"Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (keyingi o'rnlarda — YIDXP) orqali davla xizmatlarini ko'rsatishda qonunchilik hujjalarda belgilangan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlar bo'yicha 50 foiz miqdorida chegirma qo'llash uchun: "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" hamda "TMEK" axborot tizimlarini YIDXP bilan integratsiya qilinishini ta'minlash; davlat xizmatlari markazlari yoki YIDXP orqali davlat xizmatlari ko'rsatilishida to'lovlar bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan shaxslarni real vaqt rejimida aniqlash va to'lov miqdorini avtomatik tarzda belgilash imkonini yaratish.	Kompleks chora-tadbirlar	2021-yil 1-oktabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar Sh. Rajabbayev ni rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov), Pensiya jamg'armasi (A. Haydarov), Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi (A. Inakov), Davlat xizmatlari agentligi (U. Muxammadiyev)	D. Xolmurodov, Sh. Rajabbayev (A. Kamilov), D. Xolmurodov, Sh. Rajabbayev (Sh. Kudbiyev), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar ini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Davlat personallashtirish markazi (U. Tashxodjayev),
2.	Chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, xorijiy jismoniy va yuridik shaxslar hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga elektron raqamli imzo kaliti sertifikatlarini O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari tomonidan berish tartibini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-oktabr	Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov), Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar ini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)	S. Umurzakov, F. Raximov, D. Xolmurodov, Sh. Rajabbayev S. Umurzakov, F. Raximov, Sh. Rajabbayev S. Umurzakov, F. Raximov, Sh. Rajabbayev
3.	O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamaydigan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga jismoniy shaxsning shaxsiy identifikasiya raqamini soddallashtirilgan tartibda tuman (shahar) migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limgalari hamda davlat xizmatlari markazlarida amalga oshirish tartibini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-oktabr	Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Davlat personallashtirish markazi (U. Tashxodjayev),	S. Umurzakov, F. Raximov, Sh. Rajabbayev

Adliya vazirligi

4.	O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, respublikada doimiy yashovchi fuqaroligi bo'Imagan shaxslar va chet et fuqarolariga ID-karta hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirish va berishni davlat xizmatlari markazlari orqali ham amalga oshirish tartibini ishlab chiqish. Davlat xizmatlari agentligiga Identifikatsiya ID-kartalarini rasmiylashtirish va berish tizimidan foydalanish imkonini yaratish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-dekabr	(R. Davletov) Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Davlat personallashtirish markazi	X. Berdibayev, Sh. Rajabbayev
5.	Budjet tizimi budgetlari daromadlarining kassa ijrosi to'g'risidagi yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 2771, 2016-yil 30-mart) quyidagilarni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish: davlat xizmatlari markazlari, "Litsenziya" axborot tizimi hamda YIDXP orqali ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatidan 3 ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilganda, ariza beruvchilarning murojaatlariga asosan, xizmatdan foydalanish uchun to'langan davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarning 50 foizini ularga 1 ish kunida qaytarish; ariza beruvchiga qaytarilgan to'lovlarni Davlat xizmatlari agentligi tomonidan davlat xizmatini ko'rsatish muddatini kechiktirgan davlat organi va tashkilotining budgetdan tashqari va boshqa mablag'lari hisobidan so'zsiz (akseptsiz) tartibda undirish;	Idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-oktabr	(R. Davletov) Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Davlat soliq qo'mitasi	J. Qo'chqorov, D. Xolmurodov, D. Kalandarov
	davlat xizmatlari agentligi tomonidan pul mablag'larini qaytarish to'g'risida qo'yilgan talabnomadagi mablag'ni qaytarish uchun yetarli mablag'i bo'Imaganda, vakolatli organning budgetdan tashqari va boshqa jamg'armasiga mablag' kelib tushganda birinchi navbatda so'zsiz (akseptsiz) tartibda yechib olish.	Amaliy choratadbirlar	2021-yil 1-oktabr	(Sh. Kudbiyev), Davlat bojxona qo'mitasi (M. Azimov), Markaziy bank (M. Nurmuratov), Adliya vazirligi (R. Davletov)	
6.	Xorijdan turib elektron davlat xizmatlaridan foydalanishda davlat bojlari, yig'imlar va boshqa har qanday to'lovlarni chet el valyutasida xalqaro to'lov tizimlari va boshqa vositalar orqali amalga oshirish mexanzmini joriy etish.	Amaliy choratadbirlar	2021-yil 1-oktabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	O. Umarov, D. Xolmurodov, tarkibiy bo'limma rahbarlarini (Sh. Sadikov), Markaziy bank

(M. Nurmuratov),

7. Litsenziya, ruxsatnoma, sertifikat va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarning dublikatini berishda, agar bu uchun qonunchilik hujjatlarida to'lov undirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, to'lovnvi bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida belgilash (chet el valyutasida va bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizidan kam miqdorda belgilangan hollar bundan mustasno).	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari	2021-yil 1-oktabr	manfaatdor idoralar Adliya vazirligi (R. Davletov), manfaatdor vazirlik va idoralar D. Kalandarov, tarkibiy bo'linma rahbarlari	J. Qo'chqorov, D. Xolmurodov,
8. Mazkur Farmonning 2-ilovasiga muvofiq davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali bosqichma-bosqich joriy etiladigan davlat xizmatlari bo'yicha ro'yxatda belgilangan muddatlardan kamida ikki oy oldin ma'muriy reglament loyihalarini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Vazirlar Mahkamasi qarori loyihalari	2021 — 2023-yillar	Mas'ul vazirlik va idoralar	O. Umarov, tarkibiy bo'linma rahbarlari
9. FHDY organlari tomonidan qayd etilgan dalolatnoma yozuvlari to'g'risidagi ma'lumotlarni har bir fuqaroning YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali ko'rish imkoniyatini yaratish.	Amaliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-iyun	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	O. Umarov, Sh. Rajabbayev
10. Shaxsning o'limini qayd qilish bo'yicha kompozit xizmat ko'rsatish tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-dekabr	Adliya vazirligi (R. Davletov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Davlat xizmatlari agentligi	D. Kalandarov, M. Vaxobov, Sh. Rajabbayev
11. "Elektron hukumat" tizimi foydalanuvchilarini identifikatsiyalash yagona axborot tizimining (OneID) yangi talqinini hamda uning mobil ilovasini ishlab chiqish.	Kompleks chora-tadbirlar	2021-yil 15-oktabr	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)	O. Umarov, Sh. Rajabbayev 16/23

Bunda, masofaviy identifikatsiya qilishni yo'nga qo'yish, davlat xizmatidan foydalanishda shaxsni mobil aloqa telefoni orqali tasdiqlash, davlat xizmatlarini ko'rsatish holati to'g'risida abonentlarga SMS-xabar yuborish imkoniyatini yaratish.	(Sh. Sadikov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Davlat xizmatlari agentligi (U. Muxammadiyev)
12. Respublika hududidagi barcha davlat xizmatlari markazlari (ularning filiallari) hamda FHDY organlarini Internet tarmog'i hamda himoyalangan VPN tarmog'iga Toshkent shahri uchun mo'ljallangan eng arzon tariflar bo'yicha ulash va xizmat ko'rsatilishini ta'minlash.	Kompleks chora-tadbirlar 2021-yil 1-sentabr Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov)
13. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash xizmatlaridan davlat xizmatlari markazlari va YIDXP orqali foydalanishini yo'nga qo'yish.	Amaliy chora-tadbirlar 2021-yil 1-dekabr Davlat soliq qo'mitasi (Sh. Kudbiyev) Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov), Adliya vazirligi
15. Fuqarolarning mehnat daftarchalari yaroqsiz holatga kelganligi yoki yo'qolganlik holatlarida qonunchilik hujjatlarida tegishli davrlardagi mehnat stajlarini tiklash tartiblari yoki yechimlari belgilanmaganligi tufayli yo'qotilgan mehnat daftarchasidagi davlat arxivlarida saqlanayotgan tashkilotlarning hujjatlari bo'yicha yozuvlarni tasdiqlash yuzasidan arxivlar tomonidan pullik davlat xizmatlarini joriy etish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi 2021-yil 1-noyabr "O'zarxiv" agentligi (U. Yusupov), manfaatdor vazirlik va idoralar O.Umarov, tarkibiy bo'linma rahbarlari
16. Davlat xizmatlari markazi va YIDXPda avtomototransport vositalariga berilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisi orqali "avtomobil tarixi" ma'lumotlarini (davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi, yurgan masofasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalar tuzilganligi, yo'l transport hodisasi sodir etilganligi va boshqalar haqida) shartnomaviy asosda aniqlash davlat xizmatini yo'nga qo'yish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi 2021-yil 1-dekabr Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Adliya vazirligi (R. Davletov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi X. Berdibayev, D. Kalandarov, Sh. Rajabbayev

				(Sh. Sadikov)	
17. Kommunal tarmoqlardagi barcha raqamlarni (gaz, elektr, issiq suv, ichimlik suv va oqova suv tizimi ta'minotlari) jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamiga va yuridik shaxslarning soliq to'lovchining identifikatsiya raqamiga bog'lash, bu orqali har bir shaxsga "yagona mijoz" tamoyili asosida noyob raqamdan foydalangan holda xizmat ko'rsatilishini yo'lga qo'yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil 1-dekabr	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi	O. Umarov, Sh. Abidov,	
				(Sh. Xidoyatov), Energetika vazirligi	A. Jumanazarov, D. Xolmurodov
				(A. Sultanov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar ini rivojlantirish vazirligi	
				(Sh. Sadikov), Kadastr agentligi	
18. Advokatlik guvohnomasini berish, yo'qotilgan va yaroqsiz holga kelgan guvohnoma o'rniغا yangisini berish davlat xizmati muddatlari hamda talab qilinadigan hujjatlar sonini qisqartirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-sentabr	Adliya vazirligi	D. Kalandarov, M. Yakubov	
				Advokatlar palatasi	
19. Chet tili o'qituvchilarining lavozim maoshlariga oylik ustama belgilash uchun test sinovlarini o'tkazish tartibini takomillashtirish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-yanvar	(A. Ernazarov) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi	B. Musayev, M. Vaxobov	
Bunda, test sinovidan muvaffaqiyatli o'tgan o'qituvchilarga QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan Chet tilidan malaka va uni bilish darajasi bo'yicha test sinovidan o'tganlik haqida ma'lumotnomma berish.			(M. Karimov)		
20. O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan boj, yig'im va pullik xizmatlarni qayta ko'rib chiqish:	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-yanvar	Tashqi ishlar vazirligi	S. Umurzakov, F. Raximov, D. Xolmurodov	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-2095-sون qarorini to'liq qayta ko'rib chiqish va soddalashtirish;			(A. Kamilov), Moliya vazirligi	(T. Ishmetov)	

muassasalari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan boj, yig'im va pullik xizmatlarni qisqartirish, ayrim xizmatlarni bepul asosda ko'rsatishni yo'lga qo'yish.

21. Ko'chmas mulk obyektlarini kadastr raqamlariga bog'lanishi hamda ularni Yagona manzillar reyestri bilan integratsiya qilinishini ta'minlash. Tashkiliy chora-tadbirlar 2021-yil 1-noyabr Kadastr agentligi O. Umarov, (F. Umarov), D. Xolmurodov, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi Sh. Abidov, A. Jumanazarov (Sh. Xidoyatov), Energetika vazirligi (A. Sultonov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar ini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov) Turizm va sport vazirligi A. Abduxakimov, (U. Azamov), O. Qudratov Adliya vazirligi (R. Davletov)
22. Ko'char madaniy meros obyektlarini aholiga yaqindan tanishtirish, tarixiy meroslarimiz bo'yicha aholi xabardorligini oshirish maqsadida ushbu obyektlarni xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilgan holda Qo?aqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining kamida bittadan tumanida (shahrida) vaqtinchalik davlat xizmatlari markazlariga joylashtirib borish amaliyotini yo'lga qo'yish.
23. 2022 — 2026-yillarda davlat xizmatlari Normativ-ko'rsatish tizimini rivojlantirish milliy strategiyasini ishlab chiqish va Vazirlar huquqiy hujjat loyihasi 2021-yil 1-dekabr Mahkamasiga kiritish. Adliya vazirligi D. Kalandarov, (R. Davletov) M. Yakubov

(5-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-soni [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagи PF-6269-soni Farmoniga
6-ILOVA

Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika ishchi komissiyasi

TARKIBI

[Oldingi](#) tahrirga qarang.

1. A.N. Aripov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, *Respublika ishchi komissiyasi raisi*
2. O.M. Umarov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi — IT-tekhnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari

	departamenti boshlig'i, <i>Respublika ishchi komissiyasi raisi o'rribbosari</i>
3. R.K. Davletov	— adliya vaziri, <i>Respublika ishchi komissiyasi raisi o'rribbosari</i>
4. D.N. Kalandarov	— Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasi boshlig'i
5. P.R. Bobojonov	— ichki ishlar vaziri
6. T.A. Ishmetov	— moliya vaziri
8. O.A. Pekos	— Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rribbosari
9. F.K. Umarov	— Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktori
10. S.M. Xolxo'jayev	— iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirining birinchi o'rribbosari
11. Lavozimi bo'yicha	— Davlat xizmatlari departamenti boshlig'i, <i>Respublika ishchi komissiyasi kotibi</i>

Izoh: Respublika ishchi komissiyasi tarkibi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.

(6-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagи PF-6269-son Farmoniga
7-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan

O'ZGARTIRISHLAR VA QO'SHIMChA

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi "Ahолига давлат хизматлари ко'рсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тоғ'рисидаги"gi PF-5278-son Farmoniga [3-ilovadagi](#) "2021-yil 1-августга qadar" so'zlari "2021-yil 1-sentabrga qadar" so'zlari bilan almashtirilsin.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagи "Давлат ҳуқуқиёт сиёсатини амалга оширишда адлия органлари ва муассасалари фаoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5997-son Farmoniga [2-ilovaning](#) 5-pozitsiyasidagi "2021-yil noyabr" so'zlari "2022-yil may" so'zlari bilan almashtirilsin.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi "Inson ҳуқуqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoniga [2-ilovaning](#) 30-pozitsiyasidagi "2021-yil noyabr" so'zlari "2022-yil may" so'zlari bilan almashtirilsin.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasida identifikasiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6065-son [Farmonida](#):

a) 2-bandning [ikkinci](#) va [uchinchchi xatboshilar](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"identifikasiya ID-kartalarini olish va almashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, o'z ixtiyoriga ko'ra xohlagan ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga hamda davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilishi uchun imkoniyatni yaratish;

identifikasiya ID-kartalarini olish uchun O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan manzildagi ichki ishlar organining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasiga hamda davlat xizmatlari markazlariga, almashtirish uchun esa o'z ixtiyoriga ko'ra xohlagan ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga hamda davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilishi uchun imkoniyatni yaratish";

b) [2-ilovada](#):

2-bandning [oltinchi xatboshisi](#) "ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish

bo'linmalari" so'zlaridan keyin "hamda davlat xizmatlari markazlari" so'zları bilan to'ldirilsin;

[ilovaning](#) "2-bosqich" pozitsiyasining "Subyektlar" ustuni quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Ma'lumotlarni yig'ish punkti (ichki ishlar organlarining migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari, davlat xizmatlari markazlari)".

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-apreldagi PQ-843-sun qarori bilan tasdiqlangan Baholovchi tashkilotlar va baholovchilar to'g'risidagi nizomning [16-bandagi](#) "50" raqami "10" raqami bilan almashtirilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 24-dekabrdagi PQ-2095-sun qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi konsullik yig'imi tarifi rus tilidagi matni 12-moddasidan "plyus 5 dollarov SShA za gerboviy blank" so'zları chiqarib tashlansin.

[Oldingi](#) tahrirga qarang.

(7-band O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagи PF-89-sunli [Farmoniga](#) asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-sun)

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevraldagi PQ-3550-sun qarori bilan tasdiqlangan Kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish tartibi to'g'risida nizomning 52-bandi [ikkinchi xatboshisidagi](#) "ikki baravari" so'zları "10 foizi" so'zları bilan almashtirilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4126-sun qarori [5-bandagi](#) "o'n baravari" so'zları "yetti baravari" so'zları bilan almashtirilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-4732-sun qarori bilan tasdiqlangan Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to'g'risidagi nizomning [10-bandida](#):

[ikkinchi](#) va [o'ninchи xatboshilar](#) chiqarib tashlansin;

[uchinchi](#) — [to'qqizinchi](#) va [o'n birinchi xatboshilar](#) tegishinchada ikkinchi — to'qqizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi "Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4913-sun qarori 6-bandining [ikkinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"agent sifatida xizmatlarni ko'rsatuvchi tadbirdorlik subyektlarining xodimlari nodavlat ta'lim sohasidagi kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatini boshlaganlik haqida xabarnoma yuborgan o'quv markazlari tomonidan beriladigan va ko'rsatilishi mumkin bo'lgan xizmatlar turlari aniq belgilangan sertifikatga ega bo'lishi shart;".

12. Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 18-noyabrdagi 403-sun qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston qo'shiq bayrami to'g'risidagi nizomning ["Buyurtmalar berish tartibi" bo'limida](#):

[to'rtinchi xatboshisi](#) chiqarib tashlansin;

[beshinchi](#) — [o'n birinchi xatboshilar](#) tegishinchada to'rtinchi — o'ninchи xatboshilar deb hisoblansin.

13. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 6-apreldagi 271-sun qarori bilan tasdiqlangan Milliy madaniyatimiz rivojiga katta hissa qo'shgan san'atkorlarni hamda o'zbek san'atini dunyo sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish etib kelayotgan yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomning [9-bandida](#):

[uchinchi](#) va [to'rtinchi xatboshilar](#) chiqarib tashlansin;

[beshinchi](#) — [yettinchi xatboshilar](#) tegishinchada uchinchi — beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

14. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-fevraldagi 170-son qarori bilan tasdiqlangan Uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni hisobga olish, davlat uy-joy fondidagi turar joylarni taqsimlash va taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomning [45-bandida](#):

[uchinchi xatboshi](#) chiqarib tashlansin;

[to'rtinchi — yettinchi xatboshilar](#) tegishinchcha uchinchi — oltinchi xatboshilar deb hisoblansin.

15. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi 326-son qarori bilan tasdiqlangan Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish, ko'p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi [nizomda](#):

a) [3-bandda](#):

[yettinchi xatboshi](#) chiqarib tashlansin;

[sakkizinchi xatboshi](#) yettinchi xatboshi deb hisoblansin;

b) [9-bandda](#):

[oltinchi xatboshi](#) chiqarib tashlansin;

[yettinchi](#) va [sakkizinchi xatboshilar](#) tegishinchcha oltinchi va yettinchi xatboshilar deb hisoblansin.

16. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyundagi 490-son qarori bilan tasdiqlangan Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filialiga o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi [nizomda](#):

a) [14-bandda](#):

[ikkinchi](#), [yettinchi](#) va [sakkizinchi xatboshilar](#) chiqarib tashlansin;

[uchinchi — oltinchi xatboshilar](#) tegishinchcha ikkinchi — beshinchi xatboshilar deb hisoblansin;

b) [36-bandda](#):

[ikkinchi](#) va [beshinchi xatboshilar](#) chiqarib tashlansin;

[uchinchi](#) va [to'rtinchi xatboshilar](#) tegishinchcha ikkinchi va uchinchi xatboshilar deb hisoblansin.

17. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-iyundagi 526-son qarori bilan tasdiqlangan Prezident maktablari to'g'risidagi nizomning [52-bandida](#):

[uchinchi](#), [to'rtinchi](#) va [sakkizinchi xatboshilar](#) chiqarib tashlansin;

[beshinchi — yettinchi xatboshilar](#) tegishinchcha uchinchi — beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

18. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-maydagi "Tovar va moliya bozorlarida monopoliyaga qarshi tartibga solish sohasidagi davlat xizmatlarini ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 338-son qaroriga 1-ilova [14-band](#) va 2-ilova 10-bandining [birinchi xatboshilaridagi](#) "o'n" so'zi "yetti" so'zi bilan almashtirilsin.

19. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentabrdagi 544-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazida qayta tayyorlash va malaka oshirish tartibi to'g'risidagi [nizomda](#):

[8-bandda](#):

[ikkinchi](#) va [to'rtinchi xatboshilar](#) chiqarib tashlansin;

22 / 23

[uchinchi](#), [beshinchi](#) va [oltinchi xatboshilar](#) tegishinchcha ikkinchi — to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin;

45-bandning [ikkinci xatboshisidan](#) „, shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki tug'ilganlik to'g'risida guvohnoma) nusxasi” so'zlari chiqarib tashlansin.

20. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan “Akademik harakatchanlik” dasturini shakllantirish, amalga oshirish, moliyalashtirish va monitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizomning [11-bandi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Loyihaga nomzodning ma'lumotnoma-obyektivkasi (anketa) ilova qilinadi”.

Izoh:

- 1) mazkur ilovaning [5](#) va [8-bandlari](#) 2021-yil 1-dekabrdan boshlab kuchga kiradi;
- 2) mazkur ilovaning [4](#), [6](#) va [9-bandlari](#) 2022-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021-y., 06/21/6269/0704-son, 30.12.2021-y., 06/21/45/1228-son; 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son)

2022-04-18 12:20:33